

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
23-mavzu: Halollik vaksinasi

ASOSIY DARS MASHG‘ULOTI

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga halollik tushunchasini sodda va hayotiy misollar orqali tushuntirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida halollik, rostgo‘ylik kabi sifatlarni shakllantirish.

Aniq maqsadlar: Dars davomida o‘quvchilar halollik nima ekanligini, qaysi sifatlarga ega kishilar halol kishilar bo‘lishini kundalik hayotiy misollar orqali bilib oladilar. Bajarayotgan harakatlarining qay biri halol, to‘g‘ri yoki aksincha, qay biri noto‘g‘ri ekanligi haqida fikrlab, o‘z-o‘zini tarbiya qilish salohiyatiga ega bo‘ladilar. Halollik, poklik tushunchasi turli misollar, ibratli video roliklar hamda interaktiv o‘yinlar orqali shakllantiriladi.

Asosiy g‘oyalar: O‘quvchilarning halollik haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ✓ ssenariy;
- ✓ uslubiy tavsiyalar;
- ✓ videomateriallar;
- ✓ interaktiv topshiriqlar;
- ✓ taqdimot.

I qism. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar!

Bugun biz hammamiz vaksina olamiz!

Lekin cho‘chimanglar, bu vaksina igna bilan qilinmaydi. Bu – bilim orqali olinadigan, eng foydali vaksina.

Ayting-chi, bolajonlar, sizlardan kimlar oldin shifokor qabuliga borib, emlama olgan?

(2-3 nafar o‘quvchi javob beradi.)

O‘qituvchi: Emlama nima uchun qilinadi?

(Javoblar tinglanadi.)

O‘qituvchi: Barakalla! Emlama bizni turli kasalliklardan himoya qiladi. Bugun esa bizni “Vijdon” ismli shifokor davolaydi.

Kelinglar, tasavvur qilamiz: ko‘zlaringizni bir soniyaga yuming va tasavvur qiling – oq xalat kiygan, qo‘lida yurak shaklidagi dorisi bor shifokor kirib keldi. Uning ismi – Vijdon.

Endi aytinglar-chi, Vijdon shifokori bizni qaysi kasalliklardan saqlamoqchi?

(O‘quvchilar javob beradi: yolg‘onchilik, urish, o‘g‘rilik va h.k.)

O‘qituvchi: To‘g‘ri! U bizni yolg‘onchilik, o‘g‘rilik, tuhmat, ayyorlik, poraxo‘rlik kabi yomon illatlardan himoya qilmoqchi.

Mini-faoliyat: “Qalqon yasaymiz”

O‘qituvchi: Bolajonlar, dunyodagi eng kuchli qalqon nimadan yasaladi deb o‘ylaysiz? Temirdanmi? Po‘latdanmi?

Yo‘q! Eng kuchli qalqon – HALOLLIK dan yasaladi.

Kelinglar, qo‘llarimizni oldimizga tutib, xayolda qalqon yasaymiz va hammamiz birgalikda aytamiz: “Mening qalqonim – HALOLLIK!”

Bolalar takrorlaydi.

O‘qituvchi: Nega halol odam qo‘rqmaydi?

Javoblar tinglanadi.

O‘qituvchi: Chunki u yolg‘on gapirmaydi, o‘g‘rilik qilmaydi, hech kimdan yashiradigan ishi bo‘lmaydi.

Halollik – bu to‘g‘ri gapirish, boshqalarning narsasini ruxsatsiz olmaslik, ishonchni oqlash, yaxshi nomga ega bo‘lish degani.

“Halol bola” deganda hamma ishonadigan, doimo rost gapiradigan bola tushuniladi.

Halollikning aksi nima bo‘lishi mumkin?

Javoblar: yolg‘onchilik, o‘g‘rilik va boshqalar.

O‘qituvchi: Siz yolg‘on gapiradigan yoki o‘g‘rilik qiladigan bola bilan do‘st bo‘lishni istarmidingiz?

O‘quvchilar: Yo‘q!

O‘qituvchi: Nega?

1-2 o‘quvchi sababini aytadi.

O‘qituvchi: Demak, bolajonlar, biz halollik – eng kuchli qalqon ekanini bildik. Lekin hayotda qaysi ishlar halol, qaysilari noto‘g‘ri ekanini har doim ham darrov ajrata olamizmi?

Kelinglar, endi buni yanada yaxshiroq tushunish uchun birgalikda qisqa videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Halollik: nima yaxshi-yu, nima yaxshi emas! (1-qism)

<https://youtu.be/5oDgjsnvSjI>

Video muhokamasi (2 daqiqa)

II. Asosiy qism (25 daqiqa)

O'qituvchi: Bolajonlar, biz halol yashashimiz uchun nima qilishimiz kerak deb o'ylaysiz?

2-3 nafar o'quvchi javobi tinglanadi.

O'qituvchi: To'g'ri, halollik faqat katta ishlardangina emas, har kuni qiladigan oddiy ishlarimizdan boshlanadi. Masalan: uy vazifasini o'zimiz bajarish, ota-onaga yordam berish, do'stlarga ko'maklashish, topib olingan narsani egasiga qaytarish, sinf va uyda tartibli yurish.

Bularning barchasi halollikning kundalik ko'rinishlaridir. Endi aytinglar-chi, qaysi ishlar **noto'g'ri** hisoblanadi?

Javoblar tinglanadi.

O'qituvchi: Ha, sinfdoshining narsasini ruxsatsiz olish, daftaridan ko'chirish, aybni boshqalarga yuklash – bular nohalol ishlardir.

Interaktiv o'yin

O'qituvchi: Endi esa sizlar bilan “Halollik dorisini top” degan o'yin o'ynaymiz. Kim mening savollarimga to'g'ri javob bersa, men unga “yurakcha” sovg'a qilaman.

Tasavvur qiling, shifokor Vijdonning dorixonasida 3 xil dori bor:

1. Rostgo'ylik dori
2. Adolat dori
3. Ishonch dori

Endi aytinglar-chi:

- Yolg'on gapirganda qaysi dori kerak bo'ladi?
- O'g'rilik qilmaslik uchun qaysi dori yordam beradi?
- Do'stlikni saqlash uchun qaysi dori kerak?

Javoblar tinglanadi.

O'qituvchi to'g'ri javob bergan bolalarga yurakcha shaklidagi stiker beradi.

O'qituvchi: Korrupsiya – bu nohalollikning bir ko'rinishi. Halol jamiyatda esa hamma teng va adolatli yashaydi.

Bolajonlar, bilasizlarmi, poytaxtimiz Toshkent shahrida halollik va adolat g'oyalarini eslatib turadigan maxsus yodgorlik ham bor. Keling, shu stella haqida reportajni ko'ramiz.

Vizual kontent

Toshkent city hududidagi “ochiq qo‘l” monumenti

https://youtu.be/rp_6IqTEozo

O‘qituvchi: Nega bunday yodgorliklar quriladi? U bizga nimani eslatib turadi?
Bolalarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Demak, bu stella har birimizga halollik jamiyatning asosiy qadriyati ekanini eslatadi.

1-topshiriq: “To‘g‘rimi yoki noto‘g‘rimi?”

O‘qituvchi: Endi sizlar “Vijdon shifokori” yordamchilari bo‘lasiz. Quyidagi vaziyatlar halolmi yoki noto‘g‘rimi – aniqlaymiz.

Agar to‘g‘ri bo‘lsa, qo‘llaringizni yuqoriga ko‘taring. Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, qo‘llaringizni pastga tushiring.

- Dilnoza uy vazifasini do‘stidan ko‘chirib yozdi.
- Sanjar onasiga yordam qilib, idishlarni yuvdi.
- Azizbek sinfdoshining ruchkasini yashirib qo‘ydi.
- Diyor sinf partasiga yozdi.
- Usmon qushlarga in yasadi.
- Hadicha nihollarga suv quydi.
- Malika dugonasiga yordam berdi.
- Bekzod kitob sahifasini yirtib yubordi.
- Malika tinimsiz telefon o‘ynadi.
- Shuhrat ortiqcha qaytimni qaytarib berdi.

Har javobdan so‘ng qisqa izoh beriladi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, bilasizlarmi, ba‘zan odam bilib-bilmay xato qilib qo‘yishi mumkin, ayniqsa, sizlar kabi yosh bolalik paytida. Olaylik, birovning bog‘idan so‘ramay meva olib yeb qo‘yadi. Endi u bir umrga nohalol odam bo‘lib qoladimi? Unday emas, albatta. Xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, ularni boshqa takrorlamay, to‘g‘ri yo‘l tutib yashashga hech qachon kech emas.

Hozir bolaligidagi shunday kichik xatosidan katta xulosa qilib to‘g‘ri yo‘lni tanlagan bir inson o‘z tajribasini sizlarga aytib beradi. Marhamat, ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Avstraliyada o‘qigan o‘zbekistonlik yigit hikoyasi

<https://youtu.be/aIM83H68khc>

O‘qituvchi: Bolajonlar, mamlakatimizda ham halollikni mustahkamlash uchun ko‘plab ishlar qilinmoqda. Keling, shu haqdagi videoni tomosha qilamiz.

Videoni ko‘rayotganda e‘tibor bering: Davlat halollikni qanday qo‘llab-quvvatlayapti? Hurmatli Prezidentimiz nima uchun “halollik vaksinasi” degan iborani ko‘p gapiradilar va halollikni talab qiladilar?

Vizual kontent

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘li

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/397

O‘qituvchi: Demak, bolajonlar, halollik bizning kundalik ishlarimizdan boshlanadi. U jamiyatni kuchli qiladi. Halollik bizda davlat darajasida ham himoya qilinadi.

Kichkina halol ishlar katta ishonchga olib keladi. Halol bola kelajakda halol fuqaro bo‘ladi.

III. Yakuniy qism. (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Endi esa o‘ylab ko‘raylik: bugundan boshlab biz halollik vaksinasi ta’sirini qanday ko‘rsatamiz?

Bolalarning javoblari: uy vazifasini ko‘chirmaymiz, o‘rtog‘imning narsasini so‘ramay olmayman, aldamaymiz va h.k.

O‘qituvchi: Aziz bolajonlar, bugungi darsimizda yomon illatlar kasalligiga qarshi barchamizda immunitet hosil bo‘ldimi?

O‘quvchilar: Ha!

O‘qituvchi: Endi atrofimizdagilar ham bunday kasallikka chalinmasligi uchun “halollik vaksinasi” olishga chorlashimiz kerak. Ana shundagina biz hech qachon yomon illatlar kasalligiga duchor bo‘lmaymiz.

Mini interaktiv: “Halollik qasamyodi”

O‘qituvchi: Endi qo‘llarimizni yuragimizga qo‘yib, kichik “Halollik qasamyodi”ni aytamiz. Birgalikda!

Men halol bo‘laman. Rost gapiraman. Boshqalarning haqqiga teginmayman. Ishonchni oqlayman.

O‘quvchilar o‘qituvchi ortidan takrorlaydilar.

O‘qituvchi: Barakalla!

Halollik faqat bugungi dars mavzusi emas, balki butun umr bizga hamroh bo‘ladigan eng katta boylikdir.

Bugundan boshlab sizlar “halollik vaksinasi”ni olgan bolalarsiz. Endi atrofingizdagilarga ham halol bo‘lishni o‘rgating.

Agar butun sinf halol bo‘lsa, bizning sinfimiz qanday bo‘ladi?

O‘quvchilar javob beradi: kuchli, do‘stona, ishonchli va h.k.

Demak, aziz bolajonlar, kelajak aynan sizlarning halolligingizdan boshlanadi.

Sizlarga bugungi faolligingiz uchun katta rahmat! Keyingi darslarda ham shunday faol, rostgo'y va halol bo'lib qolishingizni tilayman.

Xayr, bolajonlar! Halollik qalqoningiz doimo sizni yomon illatlardan himoya qilsin!